

KOREYSCHA SO‘Z YASALISHI VA NEOLOGIZMLAR

Panjiyeva Shaxodat Olimjonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tel: +998994834092

Email: shaho200656@gmail.com

Salomova Dilnoza Bozor qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada koreys tilida so‘z yasalishi va yoshlar orasida qo‘llanilgan koreys neologizmlarining shakllanish turlari tahlil qilinadi. Koreys tilida yangi so‘zlar hosil qilishning asosiy usullari – affiksatsiya, kompozitsiya va qisqartirish kabilar ko‘rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy koreys tilida tez-tez paydo bo‘layotgan neologizmlarning omillariga alohida e‘tibor qaratiladi. Shu maqsadda maqolada eng so‘nggi gazetalarda va shu kunlarda omma orasida keng foydalanilayotgan onlayn lug‘atlarda paydo bo‘lgan ma‘lumotlardan foydalanilgan. Va bunda ijtimoiy tarmoqlar, texnologik taraqqiyot va globalizatsiyaning koreys tiliga ta’siri muhokama qilinadi. Turli yosh guruhlar va kasbiy sohalarda neologizmlarning qo‘llanilishiga oid misollar keltiriladi. Shuningdek, koreys tilidagi neologizmlarning boshqa tillarga ta’siri va ularning xalqaro so‘z boyligiga qo‘shilishi haqida fikr yuritiladi. O‘zgaruvchan til muhitida yangi so‘zlarning tezda ommalashishi va yo‘qolish sabablari o‘rganiladi. Lingvistik jihatdan, koreyscha neologizmlarning tuzilishi va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari koreys tili taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: neologizmlar, so‘z yasalishi, affiksatsiya, kompozitsiya, qisqartirish, o‘zlashma so‘zlar, teleskopiya, so‘z boyligi, lingvistika, ijtimoiy tarmoq, globalizatsiya.

ABSTRACT

This article analyzes the formation of Korean words and the types of Korean neologisms used among young people. The main methods of forming new words in Korean are considered - affixation, composition and reduction. The article pays special attention to the factors of neologisms that frequently appear in modern Korean. For this purpose, the article uses information from the latest newspapers and online dictionaries that are widely used among the public these days. It also discusses the impact of social networks, technological progress and globalization on the Korean language. Examples of the use of neologisms in different age groups and professional fields are given. It also considers the impact of Korean neologisms on

other languages and their inclusion in the international vocabulary. The reasons for the rapid popularity and disappearance of new words in a changing language environment are studied. Linguistically, the structure and semantic features of Korean neologisms are analyzed. The results of the study help to identify modern trends in the development of the Korean language.

Keywords: neologisms, word formation, affixation, composition, abbreviation, loanwords, telescoping, vocabulary, linguistics, social networks, globalization.

KIRISH

Har qanday til doimiy ravishda rivojlanib boradi va zamon talablariga moslashadi. Yangi tushunchalar, texnologik yangiliklar, madaniy o'zgarishlar va globalizatsiya natijasida har bir tilda yangi so'zlar paydo bo'ladi. Koreys tili ham ushbu jarayondan chetda qolmaydi. Ayniqsa, XXI asrda texnologiya, ijtimoiy tarmoqlar va K-pop madaniyatining kuchayishi tufayli koreys tilida ko'plab yangi so'zlar (neologizmlar) yuzaga kelmoqda. Ma'lumki, har bir tilning so'z boyligi doimiy ravishda yangilanib turadi. Shuning uchun ham tilda yangi so'zlarning paydo bolishi kabi holatlari mavjud. Bunday so'zlar tilshunoslikda neologizmlar deyiladi. Ammo vaqt o'tishi bilan neologizmlar deb ataladigan ayrim so'zlar lingvistik nuqtai nazardan to'liq o'zlashtirilgach, o'z yangiligini yo'qotishi muqarrar. Bunday holda biz ularni neologizmlar ro'yxatidan chiqarib tashlashimiz mumkin. "Zamonaviy tilshunoslikning otasi" sifatida tanilgan amerikalik professor Noam Xomskiy til haqida shunday deydi:

"Til - bu erkin ijod jarayoni, uning qonunlari va tamoyillari qat'iy, ammo ularni qo'llash usullari erkin va cheksiz darajada xilma-xildir. Hatto so'zlarning talqini va ishlatilishi ham erkin ijod jarayonini o'z ichiga oladi".

KOREYS TILIDA SO'Z YASALISH USULLARI

Koreys tilida yangi so'zlar hosil qilish uchun bir necha asosiy usullar mavjud. Bular orasida *affiksatsiya*, *kompozitsiya*, *qisqartirish*, *o'zlashma so'zlar* va *teleskopiya* keng tarqalgan.

Affiksatsiya (Qo'shimchalar yordamida so'z yasalishi)

Koreys tilida yangi so'zlar hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri – affiksatsiya (qo'shimcha qo'shish). Quyida ba'zi misollar keltirilgan:

“학생” (talaba) + “증” (guvohnoma) → “학생증” (talabalik guvohnomasi)

“운전” (mashina haydamoq) + “사” (odam) → “운전사” (haydovchi)

“먹다” (yemoq) + “음” (ot yasovchi qo'shimcha) → “먹음” (yegulik)

Affiksatsiya orqali yasalgan so'zlar odatda til tizimiga tez moslashadi va rasmiy leksikaga kiritiladi.

Kompozitsiya (Ikki yoki undan ortiq soʻzning birikishi)

Ikki yoki undan ortiq soʻzning birikishi orqali ham yangi maʼno hosil qilinishi mumkin:

“손” (qoʻl) + “전화” (telefon) → “손전화” (qoʻl telefoni, mobil telefon)

“한” (koreys) + “식” (taom) → “한식” (koreys taomi)

“고속” (yuqori tezlik) + “도로” (yoʻl) → “고속도로” (yuqori tezlik bilan harakatlaniladigan yoʻl)

Qisqartirish va teleskopiya.

Koreys tilida uzun iboralarni qisqartirish orqali ham yangi soʻzlar shakllanadi:

“아르바이트” (vaqtinchalik ish) → “알바”

“세탁기” (kir yuvish mashinasi) → “세기”

“인터넷 방송” (internet translyatsiya) → “인방”

Bu usul ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalgan va koʻpincha norasmiy til shakllarida uchraydi.

NEOLOGIZMLAR

Darhaqiqat, McDonald, L.J. aytganidek, “Neologizmlar koʻpincha madaniyat va texnologiyadagi oʻzgarishlar bilan bogʻliq”

Neologizmlar bir necha sababga koʻra paydo boʻlishi mumkin va turli tillarda har xil shakllanishi kuzatiladi. Masalan, neologizmlar chet tilidan oʻrganilgan soʻzlardan shakllanishi yoki allaqachon mavjud boʻlgan lugʻat tarkibidan yangi soʻz yasash orqali paydo boʻlishi mumkin.

Koreys tilidagi neologizmlar quyidagi usullar orqali yuzaga keladi:

1. *Chet tilidan (asosan ingliz tilidan) oʻrganilgan soʻzlar orqali shakllanishi.*

버스 (bus) – avtobus

택시 (taxi) – taksi

슈퍼마켓 (supermarket) – supermarket

커피숍 (coffee shop) – qahvaxona

버터 (butter) – sariyogʻ

스포츠 (sport) – sport

골프 (golf) – golf

2. *Har bir soʻz guruhining boshlangʻich boʻgʻini olib, qisqartma yasash orqali.*

Masalan:

남친 (남자 친구) – yigit doʻst

여친 (여자 친구) – qiz do'st

생축 (생일 축하해요) – tug'ilgan kun bilan tabriklayman

Koreys neologizmlarining umumiy tuzilishini tahlil qilish va o'rganish til lug'atidagi mavjud so'zlarni yodlash kabi oson emas. Chunki yangi so'zlar yoshlar o'rtasidagi kundalik muloqot jarayonida doimiy ravishda paydo bo'lib boradi. Shuningdek, vaqt davomiyligiga qarab, bo'g'inlar qo'shish orqali so'z yasash jarayoni ham o'zgarishi mumkin. Aynan mana shu neologizmlar shakllanish omillarini hisobga olgan holda, Jungang Ilbo (중앙일보) tomonidan SNS (ijtimoiy tarmoqlar) xabarlarida ishlatiladigan koreys neologizmlarining namunaviy misollari tanlab olingan.

Ushbu tadqiqot yangi paydo bo'layotgan so'zlar yosh avlod orasida til qo'llanishining joriy tendensiyalarini qanday aks ettirishini tahlil qiladi. So'nggi yillarda koreys neologizmlariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida Naver Band veb-saytida ishlatila boshlangan va eng mashhur jurnal Joongang Ilbo tomonidan chop etilgan neologizmlar alohida e'tiborga loyiqdir.

QISQARTMALAR

Koreys tilidagi eng keng tarqalgan neologizm turi bu so'zlarning asosiy bo'g'inlaridan tuzilgan qisqartmalardir. Qisqartma – bu bir ibora yoki nomning birinchi harfi (yoki birinchi bir necha harfi) asosida shakllangan talaffuz qilinadigan yangi so'zdir. Yangi birikkan harflar natijasida yangi so'z paydo bo'lib, u kundalik tilning bir qismiga aylanadi. So'zlar yoki iboralarni qisqartirib ishlatish muloqotni tezlashtirishi mumkin.

Masalan:

단톡 – guruhli suhbat

Ushbu neologizm quyidagi so'zlarning asosiy bo'g'inlari birlashtirilishi orqali hosil bo'lgan:

단체 – guruh

대화 – muloqot

톡 – chat

16 학번 애동과 학생들이면 단톡에 들어가야하나요? - 16-yilgi talaba bo'lsangiz, guruhli suhbatga qo'shilishingiz kerakmi?

Neologizmlarni bilmagan inson bu jumalarni noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Keling, boshqa bir misolga nazar tashlaymiz:

1. 자삭 – 자신 삭제 (o'z-o'zini o'chirish)

Ushbu neologizm “자삭” so'zi quyidagi so'zlardan hosil qilingan:

자신 – o'zi

삭제 – o‘chirish

그는 글을 올린 며칠 뒤 자삭을 했다. - U e‘lon qilgan postini bir necha kundan keyin o‘chirib tashladi.

2. 취존 – 취향 존중 (boshqalarning didini hurmat qilish)

Bu so‘z hozirda yoshlar orasida keng qo‘llanadi va quyidagi so‘zlarning birikmasidan tashkil topgan:

취 – 취향 – yoqtirish

존 – 존중 – hurmat qilish

Misol:

왜 민초단들은 취존하라면서 반민초단 취향존중 안해줄까요? - Nega Mincho tarafdorlari “boshqalarning didini hurmat qiling” deya turib, Mincho muxoliflarining fikrini inobatga olishmaydi?

3. 비번 – 비밀 번호 (maxfiy raqam)

Bu neologizm quyidagi qismlardan tashkil topgan:

비 – 비밀 – maxfiy

번 – 번호 – raqam

Bu neologizm seyf yoki biror narsaning maxfiy raqami (paroli) degan ma‘noni anglatadi.

4. 마상 – 마음의 상처 (yaralangan yurak)

Bu so‘z quyidagicha hosil qilingan:

마 – 마음 – yurak, qalb

상 – 상처 – jarohat

마상이 힘들죠. - Yurak yarasi qiyin narsa, to‘g‘rimi?

5. 최애 – 최고 애(愛, 사랑) (eng sevimli inson)

Bu neologizm quyidagi qismlardan tashkil topgan:

최 – 최고 – eng yaxshi, a‘lo

애 – 애인 – sevgan inson

Bu neologizm yoshlar orasida KakaoTalk dasturida keng qo‘llanadi.

최애는 내가 정하는게 아니다. 최애가 갑자기 와서 심장을 때리며 “오늘부터 내가 니 최애다.”라고 말하는 것이다. - Eng sevimli insonni men tanlamayman. U kutilmaganda kelib yuragimni larzaga soladi va “Bugundan boshlab men sening eng sevimli insoningman” deb aytadi).

Bundan tashqari, faqat inglizcha so‘zlardan ham “koreys” qisqartmalarini yaratish mumkin. Masalan:

플렉스 (Flex) – FLAX

Bu soʻz Amerika hip-hop madaniyatidan kelib chiqqan boʻlib, boylik yoki qimmatbaho narsalar bilan maqtanish maʼnosini anglatadi. Ushbu soʻz birinchi marta 1992-yilda reper Ice Cube tomonidan “Down for Whatever” qoʻshigʻida ishlatilgan.

스샷 – 스크린샷 (Screenshot)

Ushbu neologizm nafaqat koreyslar, balki boshqa mamlakatlardagi odamlar tomonidan ham ishlatiladi va uni tushunish oson.

UNDOSH HARFLARDAN TASHKIL TOPGAN QISQARTMALAR

Koʻpgina yirik va taniqli tashkilotlar va kompaniyalar juda uzun nomlarga ega boʻlib, ular koʻpincha bosh harflar bilan qisqartiriladi va odatda nuqtalarsiz yoziladi. Quyida bunday misollar keltirilgan:

BBC – British Broadcasting Corporation

ICI – Imperial Chemical Industries

FBI – Federal Bureau of Investigation

RSPCA – Royal Society for the Prevention of Cruelty to Animals

NATO – North Atlantic Treaty Organization

MIT – Massachusetts Institute of Technology

TUC – Trades Union Congress

Xuddi ingliz tilida boʻlgani kabi, koreys yoshlari ham faqat undosh harflardan iborat qisqartmalar yaratishadi. Quyidagi misolga eʼtibor bering:

ㄱ 入

Bu harflarning maʼnosi bir qarashda tushunarsiz boʻlishi mumkin. Ammo agar ularni boʻgʻinlarning bosh harflari sifatida koʻrib chiqib soʻz shakllantirsak, quyidagicha boʻladi:

ㄱ – 감

入 – 사

Bu birlik “감사” soʻzini hosil qiladi, yaʼni “**rahmat**” degan maʼnoni anglatadi.

Undosh harflardan iborat neologizmlar

1. ㅈ 入 (죄송) → “Kechirasiz”

ㅈ – 죄

入 – 송

Ushbu neologizm “죄송” soʻzining qisqartmasi boʻlib, “**uzr**” yoki “**kechirasiz**” degan maʼnoni anglatadi.

2. ㅈ ㅋ (축하) → “Tabriklayman”

ㅈ – 축

ㅋ – 하

Bu neologizm “축하” soʻzidan qisqartirilgan boʻlib, “**tabrik**” degan maʼnoni anglatadi. Ogʻzaki nutqda “하” tovushi “카” sifatida talaffuz qilinadi, shuning uchun 츠ㅋ qisqartmasi ijtimoiy tarmoqlarda ishlatiladi.

3. ㄱ 츠 (팬찮다) → “Hammasi joyida”

ㅏ – 팬

츠 – 찬다

Bu qisqartma “팬찬다” soʻzidan olingan boʻlib, “**hammasi yaxshi**”, “hammasi joyida” degan maʼnoni bildiradi.

4. ㄱ ㄷ (기다려) → “Kut”

ㅏ – 기

ㄷ – 다려

Bu qisqartma “기다려” soʻzidan hosil boʻlib, “**kut**”, “**kutib tur**” degan maʼnoni anglatadi.

Inglizcha soʻzlardan olingan neologizmlar

1. ㄴ ㄴ → 노노 (**no no**) – “Yoʻq, yoʻq”

2. ㄱ ㄱ → 고고 (**go go**) – “Kettik” yoki “Olgʻa”

3. ㅂㅂ → 바이바이 (**bye bye**) – “Xayr”

4. ㅇㅋ → **Okay/OK** – “Yaxshi”

Koreys yozuv tizimida har qanday boʻgʻin boshida undosh harf boʻlishi shart. Agar boʻgʻin unli harf bilan boshlangan boʻlsa, “ㅇ” harfi boʻgʻin boshiga qoʻshiladi.

BOSHQA QISQARTMALAR

ㅇㅇ → 응 (**Ha**) – Tasdiqlash uchun ishlatiladi.

ㅇㄷ → 어디? (**Qayerda?**) – Joylashuvni soʻrash.

ㅇㄱ ㄹㅇ → 이거레알? (**Bu rostmi?**) – Hayratlanish yoki ishonchsizlik ifodasi.

ㅏ ㄴ ㅈ → 가는중 (**Yoʻlda ketyapman**)

ㅂㄹ → 별로 (**Unchalik emas**)

ㅓ ㅈ → 맞아 (**Toʻgʻri**)

ㅎ ㅇ → 하이 (**Salom**)

ㄹ ㄷ → 레디 (**Tayyor**)

Bu qisqartmalar Koreya yoshlari orasida ijtimoiy tarmoqlarda keng qoʻllaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi soʻnggi xabarlarni tahlil qilish orqali koreys tilidagi yangi soʻzlar muhokama qilindi. Koreys tilidagi soʻz yasalihi va neologizmlar tahlili shuni koʻrsatadiki, til doimiy rivojlanish jarayonida boʻlib, turli omillar taʼsirida boyib boradi. Yangi soʻzlarning shakllanishi texnologik, ijtimoiy va madaniy oʻzgarishlar bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ularning paydo boʻlishi va ommalashishi muayyan davrning ehtiyojlariga javob beradi. Neologizmlar, ayniqsa, yoshlar orasida tez tarqaladi va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng qoʻllaniladi. Ularning aksariyati norasmiy tildan rasmiy leksikaga oʻtishi uchun vaqt talab etiladi. Baʼzi yangi soʻzlar uzoq muddat til boyligida saqlanib qolsa, boshqalari esa tez unutiladi. Bu tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Soʻz yasalihi jarayoni koreys tilining oʻziga xosligi va moslashuvchanligini koʻrsatadi. Turli soʻz yasalihi usullari, jumladan, affiksatsiya, kompozitsiya, qisqartirish va xorijiy soʻzlarning oʻzlashishi orqali tilning leksik tarkibi doimiy ravishda boyib boradi. Bu jarayon koreys tilini zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Koreys tilida yangi soʻzlarning shakllanishi va rasmiy tan olinishi aniq tizim asosida amalga oshadi. Milliy til instituti va tilshunoslar yangi soʻzlarni tahlil qilib, ularning rasmiy lugʻatlarga kiritilishiga yoki norasmiy soʻz sifatida qolishiga qaror qiladi. Bu esa koreys tilining meʼyoriy rivojlanishini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Koreys tili neologizmlar orqali nafaqat ichki oʻzgarishlarga uchraydi, balki boshqa tillarga ham taʼsir koʻrsatmoqda. Koreys pop-madaniyati, texnologiya va iqtisodiy oʻsish tufayli koreyscha soʻzlar xalqaro leksikaga ham kirib bormoqda. Bu esa koreys tilining jahon miqyosidagi nufuzi ortayotganini koʻrsatadi. Yangi soʻzlarning ommalashuvi va yoʻqolishi turli omillarga bogʻliq. Baʼzi soʻzlar uzoq yillar davomida qoʻllanilsa, boshqalari qisqa muddatli trend sifatida paydo boʻlib, keyinchalik isteʼmoldan chiqib ketadi. Bu til rivojlanishining tabiiy jarayoni boʻlib, u doimiy dinamikani taʼminlaydi. Neologizmlar tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi va zamonaviy hodisalarni aniqroq ifodalashga yordam beradi. Ayniqsa, ijtimoiy oʻzgarishlar, yangi texnologiyalar va global madaniy taʼsir natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalar uchun yangi soʻzlarning paydo boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi. Koreys tilining kelajakdagi rivojlanishi davomida ham yangi soʻzlar paydo boʻlishi kutilmoqda. Kelajakda tilshunoslar va rasmiy institutlar ushbu oʻzgarishlarni tartibga solishda davom etadilar. Shuningdek, til oʻzgarishlarining jamiyatga qanday taʼsir qilishi va yangi soʻzlarning rasmiy maqomga ega boʻlishi ham dolzarb masala boʻlib qoladi. Umuman olganda, koreys tilidagi soʻz yasalihi va neologizmlar til rivojlanishining muhim qismi boʻlib, ularning tahlili orqali til va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tushunish mumkin. Bu jarayon tilni yanada boyitadi va uning yanada moslashuvchan boʻlishini taʼminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahn, S.-C., & Egorova, K. (2021). Morphing Phonological Patterns of Recent Korean Neologisms. Russia: Advances in Social Science, Education and Humanities Research, Vol. 531.
2. Chomsky, N. (1970). Language and Freedom (Lecture). University of Chicago.
3. International Journal of Korean Humanities and Social Sciences, Vol. 2, 2016, p. 128.
4. Jungang Daily Newspaper, South Korea, February 8, 2017.
5. Olimjonovna P. S. Koreys Tilini O‘qitishda Zamonaviy Yondashuvlar: Zamonaviy Texnologiyalar Bilan O‘qitish //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 49. – C.1267-1269.
6. Panjiyeva S. O. LINGVOKULTUROLOGIYA FANINING YUZAGA KELISH TARIXI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 9. – C. 387-391.
7. McDonald, L. J. (2005). E-: The Meaning of Neologisms as Cultural and Technical Symbols.
8. Muegn Encyclopedia. Available at: <https://muegn.ru/uz/enciklopediya>
9. Naver Knowledge Q&A. Available at: <https://kin.naver.com/qna/>
10. Namu Wiki. Available at: <https://namu.wiki>
11. Namu Wiki – FLEX. Available at: <https://namu.wiki/w/FLEX>